

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'ATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TARIXI

Pulatova Nodira Sadriddin

Navoiy davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi" (Tarix) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar : PhD Xoliqulova Shahnoza

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbek xalqi-jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta xissa qo'shgan eng qadimiy xalqlardan biri ekanligi haqida, madaniyat va san'at sohasida loyihalarni boshqarish mavzusining dolzarbligi zamonaviy jamiyat rivojlanishining ma'naviy omillariga bo'lgan qiziqishining ortishi, ijodiy merosning jamiyatning milliy merosi sohasiga ta'siri, O'zbekiston siyosatidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liqligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, san'at, boshqaruv, loyiha, rivojlantirish, salohiyat, shakllantirish, ro'yobga chiqarish.*

Mustaqillikdan buyon O'zbekistonda ko'plab madaniy loyihalar amalga oshirildi va mutaxassislar madaniyat sohasidagi rivojlanish istiqboliga loyihaviy yondashuv, uning salohiyatini ro'yobga chiqarish muhimligini haqli ravishda baholadilar. Ayni paytda, madaniy tovarlar jadal rivojlantirishdan ortda qolmaslik, jahon andozalariga mos kelishi uchun sohada loyiha menejmentini qo'llash zamon talabi bo'lib qolmoqdadir. Hozirgi vaqtda madaniyat sohasidagi loyiha bazasi zaif, chunki u yetarli darajada o'rganilmagan va loyiha menejerlarini tayyorlash uchun kam sonli ilmiy tadqiqotlar bilan ifodalanadi.

Xuddi shu paytning o'zida, biz loyiha boshqaruvi sohasida xorijiy tajribalarni olib, keyin ma'lum bir boshqaruv tuzilishini shakllantirishimiz va xorijiy hamkasblar tajribasiga asoslangan loyihalar asosida muhim iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan ishlarni amalga oshirishimiz zarur bo'ladi. O'zbekistonda davlat, tijorat va notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik asosida loyihalarni boshqarish sohasini o'zlashtirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ular madaniy boshqaruv sohasida qo'shimcha resurslarni jalb qilishni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda aholiga madaniy tovarlar va xizmatlarning sivilizatsiyalashgan bozorini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqillik yillaridan boshlab milliy madaniyatni rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik

san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini inovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosida ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning yetishmasligi, madaniyat muassalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021- yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Moddiy- madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda.

XIX asrda O'rta Osiyoda Tasviriy san'at, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qon miniaturachilari ijodiyoti o'zini namoyon qildi. Ma'lumki, XIX asr ma'rifatparvari, shoir, faylasuf, hattob, falakiyotchi Ahmad Donish (1827-1897) yana musavvir iste'dodiga ega edi. Uning bizgacha yetib kelgan rasmlari: Abduqodir Bedilning "To'rt unsur" qo'lyozma asariga bag'ishlab chizilgan "Shoir va rassom" miniaturasi hamda shahar mirshabini aks ettirgan satirik miniaturasi bundan dalolat beradi. U chizgan miniaturlar nihoyasiga yetkazilgan mukammal rasm, o'rniga qo'yilgan bo'yoqlar, aniq-ravon kontr chiziqlari, uning grafik dastxati bilan ajralib turadi. Ahmad Donishning shogirdi Abdulxoliq Mahmud ham qurt-qumursqalar va gullarni mahorat bilan aks ettirgan rassom sifatida tanilgan.

XIX asrning 70-yillarida va XX asr boshlarida Turkiston tasviriy san'atida rus rassomlarining, asosan Peterburg badiiy akademiyasi tarbiyalanuvchilarining asarlari o'rin olgan. Ularning ijodiyoti O'rta Osiyo tarixi va o'sha davrini, tabiati va turmushini aks ettirgan.

Yangi O'zbekiston madaniyat sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Haqiqatan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3920-son qarorini imzolashi buning yaqqol isbotidir. Bu qaror ijrosi madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishni ta'minlash, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, aholining madaniyat muassasalariga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, mamlakatimizning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvini ta'minlashni nazarda tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarning naqadar dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarida moddiy-madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlarini restavratsiya qilish uchun xarajatlarga 500 mlrd. so'm ajratilishi belgilandi.

Har bir insonda tafakkur, fikrlash erkin, mustaqil bo'lishi kerak. Ommaviy tarzda bir xil fikrlash halokatli. Bunda ijod ham, rivojlanish ham bo'lmaydi. Ana shu ma'noda o'ylamasdan taqlid qilish milliy qiyofani, o'zlikni unutishga olib keladi. Ayni paytda dunyo adabiyoti, madaniyat va san'atidagi ilg'or, umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan g'oyalarni o'rganish, o'zlashtirish talab etiladi.

Har qanday soha boshqalaridan ajralshgan holda yakka o'zi rivojlana olmaydi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki, madaniyat va san'at millat taraqqiyoti yo'lidagi nihoyatda ahamiyatli va o'ta nozik soha. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan, tilagiga ko'chadigan tuyg'ularni tarbiyalaydi.

Aytganingizdek, sohada tubdan yangilanish uchun imkoniyatlar kengaygani barobarida milliy madaniyatimizni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan kamchiliklar ham talaygina. Masalan, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yo'q. Yoki yosh ijodkorlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida tayinli tizim mavjud emas. Busiz madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, madaniy xizmatlar sifatini oshirish qiyin vazifa. Bundan tashqari, aksariyat madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablariga

mos kelmaydi, bu esa ularning to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun imkon bermaydi.

Yana bir katta muammo — zamonaviy mediamakonda milliy madaniyatimiz munosib o'rin egallamaganida. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to'liq joriy etilmagani sohani xalqaro madaniy jarayonlarga integratsiya qilishga yo'l bermayapti. Bundan tashqari, milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning tuzukroq tizimi yaratilmagan, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik ham yetarlicha yo'lga qo'yilmagan...

Xullas, masalalar yetarli va ularni tizimli ravishda yechish uchun ham milliy madaniyatimizni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Endi hammamiz uyushib, jon koyitib, milliy madaniyatning barcha yo'nalishlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros hamda muzeylar, teatr, kino, sirk, milliy musiqa, estrada, raqs, tasviriy va amaliy san'atlar, madaniyat va istirohat bog'lari hamda madaniyat markazlari, ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, madaniyat turizmi sohalarida natija, o'zgarishlar qilish, rivojlanish uchun tinmay ishlashimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'rinov S. K., Boboqulova S. madaniyat va san'at boshqaruvining bugungi kundagi ahamiyati // ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. — 2022. — c. 78-82.

2. Axrorova m. madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siri // журнал музыки и искусства. — 2022. — т. 3. — №. 1.

3. Abdusalomova x. g. a. q., gulomova n. x. san'at va madaniyat sahosidagi islohotlar bilan ertangi kunga yangicha nazar // scientific progress. — 2021. — т. 2. — №. 2. — с. 663-669.